

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA  
JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI  
SHAKLLANTIRISHDA HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARIGA  
AMAL QILISH**

*Jizzax viloyati Jizzax shahar 36-DMTT Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi*

***Maxmudova SevaraMaxmudovna***

*Toshkent viloyati Bekobod shahar 9-DMTT Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi*

***Rahmonova Hulkar Xurazbay qizi***

***Annotatsiya:*** Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilish pedagogik shart - sharoitlari bayon etilgan.

***Tayanch so‘zlar.*** Pedagog, sog‘lom turmush tarzi, hayot xavfsizligi, muhit, faslitator, xavfsizlik qoidalari, ta‘lim-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi, yondoshuv, mahorat.

Hozirgi paytda davlatimiz oldidagi eng asosiy vazifalardan biri maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda ularning xavfsizlikni ta‘minlashdir.

Zamonaviy O‘zbekistonimiz yashash darajasining yuqori ko‘rsatkichlaridan biri aholi xavfsizligini ta‘minlashdir. Darhaqiqat, ta‘lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa uning samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta‘sir qiladi. YUNISEF tashkilotining “Bolaga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturi”da Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi pedagog texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala ekanligi ta‘kidlangan. Yosh bolalar tevarak-atrofga, voqea va hodisalarga, narsa buyumlarga qiziquvchan bo‘ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko‘rishni yoqtiradilar.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti hodimlarining asosiy vazifasi Maktabgacha

yoshdagi bolalarni hayot xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotida Davlat talablarining bosh tamoyili bo'lgan "Bolaning noyobligi", "Bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi", "Bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli"ni anglagan holda, MTT, oila, tarbiyachi-pedagoglar hamda ota-onalarning bevosita, doimiy va samarali hamkorligini talab etishi bejizga emas.

Kattalar nazarida bolalar o'z sog'ligi haqida qayg'urmagandek tuyiladi: agar ularga qaramasangiz, hammasi derazadan yiqilib, suvga cho'kib, mashina ostiga tushib, ko'zlarini o'yib, oyoqlarini sindirib, yaliglanish bilan kasal bo'lib qolishadi. Yo'q, aslida bunday emas bolalar huddi kattalar kabi, sog'lom va kuchli bo'lishni xohlashadi, faqat bolalar buning uchun nima qilishni bilishmaydi. Bolaning xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ko'lamini faqat Maktabgacha ta'lim tashkilotida hal qilish bu masalaning samarali yechimi hisoblanmaydi. Shuning uchun, turli hil usullardan foydalanish, ota-onalar farzandlarini xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalariga o'rgatish va boshqalarni ta'minlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yosh davr har bir inson hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Aynan shu yillarda bolaning salomatligi, barkamol, aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishning poydevori qo'yiladi va shaxsning shaxsiyati shakillanadi. Hozirgi kunda umumjahon madaniyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sog'liqni saqlash harakatlarini rivojlantirish va umuman bolalarning jismoniy rivojlanishini yaxshilash bo'yicha ishlarni takomillashtirish masalalari mavjud.

Ma'lumki, sog'liq faqatgina 7-8% sog'liqni saqlashga bog'liq shu bilan birga uning turmush tarziga bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom turmush tarzining quydagi tarkibiy qismlariga alohida e'tibor qaratish lozim:

- Ertalabki badan tarbiyani to'g'ri tashkil etish;
- Harakatli mashqlarni tashkil qilish;

- Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish;
- rejimasosida uyqunitashkil qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda “O‘zingizga zarar bermang” tushunchasi shakllantirilib borishi ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning sog‘lom turmush tarziga g‘amxo‘rlik qilish jismoniy va axloqiy salomatlikni mustahkamlash ularning hayot havfsizligini ta’minlash har bir pedagoghamda ota-onaning oldida turgan mas’uliyatli vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. Toshkent 2018.
2. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 2707 – son 2016 yil 29 dekabrda Qarori. Xalq so‘zi 2016 yil, 30 dekabr.
3. Otavaliyeva U Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi Toshkent «Uqituvchi» 1994.y
4. Qodirova F. M. “Maktabgacha pedagogika” : o‘quv qo‘llanma Toshkent «Manaviyat »
5. Muratova, M. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida otaonalarini ta’lim tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta’minlashning amaliyotdagi holati. *Scienceandinnovation*, 1(B7), 1091-1096.